

---

## Davlat xizmatlari markazi yangi binoda

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligining Farg'ona shahar Davlat xizmatlari markazi bundan buyon barcha qulayliklarga ega zamonaviy binoda faoliyat ko'rsatadi.

Yaqinda B.Marg'inoniy ko'chasiga joylashgan Farg'ona shahar Davlat xizmatlari markazining tantanali ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Unda viloyat hokimi Shuhrat G'aniev qatnashdi.

- Aholiga hamda yuridik shaxslarga sifatli davlat xizmatlari ko'rsatish imkonini beruvchi bunday shart-sharoitlar "Fuqarolar emas, hujjatlar harakatlanadi" tamoyilining amalda bajarilishiga mustahkam zamin yaratadi,-dedi viloyat hokimi. - O'z navbatida, bu kabi qulayliklar zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan unumli foydalanib, tezkor xizmatlar ko'rsatish uchun muhim ahamiyatga ega.

Farg'ona shahar Davlat xizmatlari markazi rahbari Odiljon Karimovning ma'lum qilishicha, joriy yilning to'rt oyida markaz xodimlari tomonidan 4810 ta xizmat ko'rsatildi. Hisobot davrida 1272 ta tadbirkorlik sub'ektlari ro'yxatdan o'tkazildi.

Ayni paytda barcha shart-sharoitlar yaratilgan markazda malakali mutaxassislar tomonidan murojaat qiluvchilarga 50 dan ortiq davlat xizmatlari ko'rsatilmoqda.





2018-05-07 11:59:18